

**“Targ‘ibot poyezdi” lohiyasi doirasida Yangi Tahrirdagi
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini
aholi va jamoatchilik orasida keng targ‘ib qilish bo‘yicha**

**Mamajonova Xurshida Qosimjon qizi
Xalqaro Nordik universiteti
“Iqtisodiyot va Pedagogika” fakulteti dekan muovini
x.mamajanova@nordicuniversity.org
+99899-898-04-47**

Ma'lumotnoma

2024-yilda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ahamiyatini keng targ‘ib qilish va uning mohiyatini jamoat orasida chuqurroq tushuntirish maqsadida "Targ‘ibot poyezdi" loyihasi amalga oshirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida, davlatning asosiy huquqiy hujjati bo‘lgan Konstitutsiyaning yangi tahririni keng jamoatchilikka yetkazish, uning mazmuni va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan seminarlar, targ‘ibot tadbirlari, suhbatlar va boshqa interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda. Bir narsani alohida aytish kerakki, Konstitutsiyaning bu matni olim-u mutaxassislar tomonidan faqat kabinetlarda yaratilmadi. Balki, dastavval ikki bosqichda xalqimizning fikri, takliflari o‘rganildi, shundan so‘nggina Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi.

Yangilangan konstitutsiya.

Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya’ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi.

Avvallari esa Konstitutsiya qabul qilishda dastlab loyiha ishlab chiqilib, keyin xalq muhokamasiga qo‘yilgan edi. Loyihaning bir qismi sifatida, universitetlar, ta’lim muassasalari va yoshlar tashkilotlarida seminarlar, uchrashuvlar va forumlar tashkil etilmoqda. Ushbu tadbirlarda talabalarga yangi tahrirdagi Konstitutsiya tamoyillari tushuntiriladi, yoshlar o‘z huquqlarini anglab, ular bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi, jamiyatda demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishning poydevori sifatida yuksak ahamiyatga ega bo‘lib, bu kabi targ‘ibot ishlari

yoshlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Inson huquq va erkinliklari hamda ularning kafolatiga oid o'zgartirishlar.

Inson huquq va erkinliklariga oid normalar 3 baravardan ortiqqa oshdi.

Qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi shart va zarur. Bunga ko'ra, inson va davlat o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi, fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklari oldi olinadi. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarga doir o'zgarishlar

Insonga e'tibor hamda g'amxo'rlik – davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlandi. Davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko'paytirildi. Xususan, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilandi. "Targ'ibot poyezdi" loyihasi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining mazmuni va mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan muhim tashabbusdir. Konstitutsiyaning yangi tahriri jamiyatda adolat, tenglik va demokratiya tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi, shuningdek, yoshlar uchun kelajakdagi huquqiy islohotlarda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni taqdim etadi.



